

**“Respublika ixtisoslashtirilgan allergiologiya va klinik immunologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi”ga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha
Yo'riqnoma**

I. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu Yo'riqnoma (*keyingi o'rinlarda – Yo'riqnoma*) “Respublika ixtisoslashtirilgan allergiologiya va klinik immunologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi” (*keyingi o'rinlarda – Markaz deb yuritiladi*) ishga qabul qilishda nomzodlar tekshiruvini o'tkazishning tamoyillari, talablari, tartibi va muddatlarini belgilovchi ichki hujjat hisoblanadi.

1.2. Ushbu Yo'riqnomaning maqsadlari quyidagilardir:

- nomzod tomonidan taqdim etilgan o'zi, uning professional faoliyati, boshqa jismoniy va yuridik shaxslar bilan qarindoshlik va tijorat aloqalari haqidagi ma'lumotlarni tekshirish;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda Markazning ichki hujjatlari talablariga muvofiq halol, sifatli, puxta, xolis amalga oshirishga qodir jismoniy shaxslar bilan mehnat munosabatlarini rasmiylashtirishga erishilishini ta'minlash;
- Markazda lavozim majburiyatlarini bajarish uchun yetarli bilim va tajribaga ega bo'lmagan, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan shuningdek ularni ishga olish Markaz obro'si uchun, korrupsiyaga oid yoki boshqa xatarlarga olib keluvchi nomzodlar bilan mehnat munosabatlariga kirishish xatarini minimallashtirish;
- rahbarlik va moddiy javobgarlik bilan bog'liq lavozimlarga bilimli, halol, vijdonli, qonunga itoatkor xodimlarni tanlab olish.

1.3. Ushbu yo'riqnoma ishga qabul qilishda O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari bilan alohida tartib belgilangan lavozimlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

2. Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirishga qo'yilgan umumiy talablar va ularning muddatlari

2.1. Hodimlar bilan ishlash bo'limi va Korrupsiyaga qarshi ichki nazoratni amalga oshiruvchi bo'lim yoki shaxs nomzodlarni tekshirish uchun mas'ul hisoblanadi.

2.2. Tekshiruv barcha doimiy va muddatli lavozimlarga nomzodlar, shuningdek fuqarolik-huquqiy shartnomalar bo'yicha qabul qilingan nomzodlarga nisbatan amalga oshiriladi.

2.3. Ishga qabul qilinayotgan nomzod professional tanlov va testdan muvaffaqiyatli o'tgach, biroq mehnat shartnomasi tuzilmasdan avval tekshiriladi.

2.4. Nomzodni tekshirish 5 (besh) ish kunigacha bo'lgan muddatda amalga oshiriladi.

2.5. Nomzodni belgilangan muddatlarda tekshirish xolis sabablarga ko'ra imkonsiz bo'lsa, uning davomiyligi 5 (besh) ish kunigacha bo'lgan muddatga cho'zilishi mumkin.

3. Tekshirish uchun hujjatlar va ma'lumotlarni olish

3.1. Nomzodni tekshirishni amalga oshiradigan Hodimlar bilan ishlash bo'limi va Korrupsiyaga qarshi ichki nazoratni amalga oshiruvchi bo'lim yoki shaxsga (*keyingi o'rinlarda – Ijrochi*) tekshiruvni o'tkazish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 124-moddasiga muvofiq ishga qabul qilinayotganda talab etiladigan hujjatlar nusxalari;
- nomzod tomonidan Markazdagi manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha ichki idoraviy hujjatga muvofiq olinadigan hujjatlar nusxasi.

3.2. Ma'lumotnoma olinayotganda to'ldirilmagan bandlar mavjud bo'lsa, Ijrochi nomzoddan yetmayotgan ma'lumotlarni so'rab olishi mumkin.

- 3.3. Ijrochi nomzoddan taqdim etilgan hujjatlar bo'yicha tushuntirish va qo'shimchalarni so'rab olishga haqli.
- 3.4. Nomzod so'ralayotgan hujjatlar yoki ma'lumotlarni taqdim etishni rad etgan taqdirda nomzodni tekshirish ochiq foydalanuvdagi va Ijrochi tasarrufidagi ma'lumotlar asosida, shuningdek rasmiy so'rov yuborish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bunda Ijrochi tekshiruv natijalariga oid xulosada tegishli qaydni amalga oshiradi.
- 3.5. Nomzodning O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida ko'zda tutilmagan hujjatlarni taqdim etishdan bosh tortishi uning ishga joylashishini rad etish uchun sabab bo'lmaydi.

4. Ishga joylashayotgan nomzodlarni tekshirish uchun axborot manbalari

- 4.1. Ishga joylashayotgan nomzodni tekshirish doirasida nomzoddan olingan ma'lumotlar, shuningdek ochiq manbalardan yoki rasmiy so'rovlar yuborish orqali olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va ishlash amalga oshiriladi.
- 4.2. Ishga joylashayotgan nomzodni tekshirish uchun axborot manbalari qonuniylik va xolislik talablariga javob berishi lozim. Ijrochi boshqa davlat organlari va tashkilotlariga, nomzodning avvalgi ish joylari, o'quv muassasalari va h.k larga taqdim etilgan ma'lumotlarni tekshirish uchun rasmiy so'rov yuborish mumkin.
- 4.3. Ijrochi huquqni muhofaza qilish organlariga so'rov yuborish orqali nomzodning sudlanganligi, firibgarlik, korrupsiya va zo'ravonlik bilan bog'liq ishlarga aloqadorligini tekshirishi mumkin.
- 4.4. Nomzod haqidagi ma'lumotlarni tekshirish uchun ochiq axborot manbalaridan foydalanish mumkin.

5. Ishga joylashayotgan nomzodlarni tekshiruvini o'tkazish yo'nalishlari

- 5.1. Nomzodlarni tekshirish quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi:
- nomzodda tugatilmagan sudlanganlik holati yoki iqtisodiy, jumladan korrupsiyaviy xarakterdagi qonunbuzarliklar munosabati bilan uni ma'muriy, jinoiy yoki intizomiy javobgarlikka tortish faktlari mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlar yo'qligi;
 - sud organlari tomonidan qo'yilgan rahbarlik lavozimlarini egallashga ta'qiq yo'qligi – rahbarlik lavozimiga nomzod uchun;
 - nomzod yoki uning yaqin qarindoshlari to'g'risida ularning korrupsiyaviy, firibgarlik yoki boshqa qonunga xilof faoliyatiga doir ma'lumotlar yo'qligi;
 - avvalgi ish joylaridan salbiy tavsiyanomalar yo'qligi;
 - nomzodda manfaatlar to'qnashuvi alomatlari yo'qligi;
 - nomzodga nisbatan boshqa xatar indikatorlari yo'qligi (*jumladan, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida namoyish etilgan hayot tarzi rasmiy ish haqiga mos kelmaydi va boshqalar*).
- 5.2. Qayd etilgan yo'nalishlar bo'yicha tekshiruv o'tkazish majburiy. Bunda tekshiruv yo'nalishlari ro'yxati zaruratga qarab har bir aniq holatda kengaytirilishi mumkin.

6. Ishga joylashayotgan nomzodlarni tekshirish natijalari

- 6.1. Nomzodni tekshiruvini o'tkazish natijalari bo'yicha Ijrochi tomonidan Nomzod tekshirilgani to'g'risidagi hisobot tuzilib, mazkur hisobot Hodimlar bilan ishlash bo'limida saqlanadi.
- 6.2. Korrupsiyaviy xavf-xatarlar mavjud bo'lgan taqdirda tekshiruv o'tkazayotgan shaxs ularni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni taklif qiladi yoki bunday xatarlar darajasini pasaytirish imkonini bo'lmagan taqdirda nomzodni tekshirish natijalari bo'yicha salbiy xulosa beradi.
- 6.3. Markazda xodim bilan tuzilayotgan mehnat shartnomasiga korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida ogohlantirish bandi namunasi kiritilishi lozim.

7. Tekshiruvni hujjatlashtirish va hujjatlarni saqlash muddatlari

- 7.1. Ishga joylashayotgan nomzodni tekshirish natijalari (*jumladan, Tekshiruv natijalari to'g'risidagi hisobot va boshqa hamroh hujjatlar*) maxfiy hisoblanadi va ishga joylashayotgan nomzodni tanlab olish va tekshirish jarayonida ishtirok etmayotgan Markaz xodimlari va boshqa uchinchi shaxslarga oshkor etilmaydi.
- 7.2. Ishga joylashayotgan nomzodlarni tekshirish hujjatlaridan faqatgina Ijrochilar foydalanishi mumkin.
- 7.3. Lavozim majburiyatlarini amalga oshirish uchun bunday ma'lumotlardan foydalanishi zarur bo'lgan

boshqa xodimlar Markaz rahbari yoki uning o‘rinbosarining yozma roziligini olishi lozim.

7.4. Nomzod ishga joylashtirilgan taqdirda Tekshiruv o‘tkazilgani haqidagi hisobotning asl nusxasi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan muddat va tartibda xodimning shaxsiy yig‘ma jildida saqlanishi shart.

7.5. Tekshiruv o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi hisobot nusxasi, shuningdek, hisobotdagi ma’lumotlarni tasdiqlovchi hujjatlar va ma’lumotlar (*masalan, skrinshotlar, ko‘chirma, vakolatli muassasalarga yuborilgan so‘rovlar va ularga olingan javoblar va h.k*) Hodimlar bilan ishlash bo‘limi tomonidan kamida 10 (o‘n) yil davomida saqlanishi shart.

7.6. Markazga ishga joylasha ololmagan nomzodlarni tekshirish natijalari uch yil davomida saqlanadi.

8. Yakuniy qoidalar

8.1. Ushbu Yo‘riqnoma O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi o‘zgargan taqdirda yoki nomzodlarni tekshirish jarayonini takomillashtirish zarurati tug‘ilganda qayta ko‘rib chiqilishi va o‘zgartirilishi lozim.

8.2. Mazkur Yo‘riqnoma qoidalarini buzishda aybdor xodimlar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Markaz ichki hujjatlarida ko‘zda tutilgan tartib va asosda intizomiy va boshqa javobgarlikka tortilishi mumkin.